| <b>Bobonazarov Orif Abrayqulovich</b>                                                                                                                     |     |
| Влияние гендерной лингвистики на развитие психолингвистических исследований в Узбекистане ..                                                              | 764 |
| <b>Мусаева Елена Казимовна</b>                                                                                                                            |     |
| Psixik rivojlanishni tashxislashda psixofiziologik usullardan foydalanish samaradorligi .....                                                             | 767 |
| <b>Sh. L. Rahmonova</b>                                                                                                                                   |     |
| Boshlang'ich sinf matematika darslarida o'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish .....                                               | 770 |
| <b>Saidova Dilbar Erkinovna</b>                                                                                                                           |     |
| Ingliz tili o'qitishda integrativ (CLIL) texnologiyasining boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun mos modellarini ishlab chiqish .....                      | 773 |
| <b>Xakimova Xosiyat Jurayevna</b>                                                                                                                         |     |
| Rivojlangan mamlakatlar ta'lim tizimida talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda sun'iy intellektdan foydalanish usullari .....                         | 776 |
| <b>Mirzayeva Faroxat Odiljonovna, Odiljonova Shoxsanam Abdug'appon qizi</b>                                                                               |     |
| Boshlang'ich sinf o'quvchilarida jismoniy sifatlarni rivojlantirishda innovatsion o'yin metodlarining ahamiyati .....                                     | 785 |
| <b>Ikromov Ilxom Muxamadrasimovich</b>                                                                                                                    |     |
| Tabiat tasvirining adabiy janrlarga ko'ra o'ziga xosliklari .....                                                                                         | 790 |
| <b>Fozilova Mohigul Farxodovna</b>                                                                                                                        |     |
| Методические подходы к развитию прагматической компетентности старшеклассников на основе чтения аутентичных материалов .....                              | 794 |
| <b>Исаматдинова Машхура Икромжон кизи</b>                                                                                                                 |     |
| O'zbek tilida "zahar" konseptining leksik-semantik va pragmatik xususiyatlari .....                                                                       | 799 |
| <b>Shokirov Sherhali Ibrohimovich, Baxramov Xabibillo Sadikovich</b>                                                                                      |     |
| Integrativ modulli o'qitish tizimi samaradorligining miqdoriy va sifat tahlili .....                                                                      | 803 |
| <b>Nurmanova Nazira</b>                                                                                                                                   |     |
| Sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini shakllantirishda STEAM ta'lim texnologiyalaridan foydalanishning ahamiyati .....                                     | 807 |
| <b>Toshova Shaxnoza Tojidorovna</b>                                                                                                                       |     |
| Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining boshlang'ich sinf o'quvchilariga harakatga doir masalalarni klaster metodida o'rgatish .....                | 811 |
| <b>Badalov Dilmurod Abdixalilovich</b>                                                                                                                    |     |
| Ona tili darslarida o'quv lug'atlaridan foydalanishning o'quvchilarning og'zaki nutq kompetensiyasini rivojlantirishdagi didaktik asoslari .....          | 817 |
| <b>Ahmedova Adiba Ulug'bek qizi</b>                                                                                                                       |     |
| Philosophical Aspects and Analysis of the Regularities of the Formation of Geo-Economic Thinking .....                                                    | 822 |
| <b>Ubaydullayev Islomjon Abdullayevich</b>                                                                                                                |     |
| Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini sun'iy intellekt texnologiyalaridan samarali foydalanishga tayyorlashning pedagogik asoslari .....          | 826 |
| <b>Xudayqulova Fazilat Bo'riyevna</b>                                                                                                                     |     |



|                                                                                                                                                                              |     |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| Boshlang'ich ta'lim va tarbiya jarayonida o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishda ommaviy axborot vositalarining (Media/Mass Communication) roli..... | 831 |
| <b>Bo'ronova Dilrabo Ne'matullayevna</b>                                                                                                                                     |     |
| Inkluziv maktab sharoitida kichik maktab yoshidagi bolalarda ijtimoiy-perseptiv tajribani shakllantirish .....                                                               | 835 |
| <b>Karimova Zulfiya Abduraxmanovna</b>                                                                                                                                       |     |
| TEACCH konsepsiyasi – autizm va kommunikativ buzilishlari bo'lgan bolalarni davolash va o'qitish dasturi.....                                                                | 839 |
| <b>Murodova Sarvigul Raxim qizi</b>                                                                                                                                          |     |
| Модернизация кадровой политики дошкольных учреждений через инновационные мониторинговые механизмы .....                                                                      | 843 |
| <b>Ким Нигора Каримовна</b>                                                                                                                                                  |     |
| Bo'lajak tarbiya fani o'qituvchilarining metodik kompetentligini ergonomik yondashuv asosida rivojlantirish .....                                                            | 847 |
| <b>Usmonova Xafiza</b>                                                                                                                                                       |     |
| Pedagogik improvizatsiya asosida talabalar o'quv faoliyatini rivojlantirishning pedagogik strategiyalari ....                                                                | 852 |
| <b>Ergasheva Muhayyoxon G'anijonovna</b>                                                                                                                                     |     |
| Talabalar orasida ilmiy-pedagogik tadqiqotlarni tashkil etish va o'tkazish .....                                                                                             | 857 |
| <b>Nurmatova Madina Odiljon qizi, Qo'shoqova Farangiz Azizbek qizi</b>                                                                                                       |     |
| O'quvchi-yoshlarni oilaga nisbatan ma'naviy-axloqiy va qadriyatli munosabatlarga tayyorlash – ijtimoiy-pedagogik zaruriyat sifatida .....                                    | 861 |
| <b>Xaydarov Oxunjon Murodjonovich</b>                                                                                                                                        |     |
| Talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda mustaqil ta'limning ilmiy-metodik ahamiyati .....                                                                      | 866 |
| <b>B. Normamatova</b>                                                                                                                                                        |     |
| Talabalarda pedagogik e'tiqodni shakllantirishning variativ modeli va uning asosiy komponentlari .....                                                                       | 869 |
| <b>Bahranova Hulkar Bahran qizi</b>                                                                                                                                          |     |
| Konvensial yondashuv asosida talabalarni mustaqil ta'lim olish samaradorligining didaktik imkoniyatlarini rivojlantirish.....                                                | 872 |
| <b>Berdiyev Bahodir Ravshanovich</b>                                                                                                                                         |     |
| Kontekstli yondashuvga asoslangan o'quv-ijodiy faoliyatning turlari .....                                                                                                    | 875 |
| <b>Botirova Zilola Nodirovna</b>                                                                                                                                             |     |
| Raqamli texnologiyalar vositasida bo'lajak tarbiyachilarning pedagogik muloqot madaniyatini rivojlantirish.....                                                              | 878 |
| <b>Ergasheva Sunbula Baxtiyor qizi</b>                                                                                                                                       |     |
| Boshlang'ich sinflarida ta'lim o'quvchilarga sonlar haqida ma'lumot berish .....                                                                                             | 882 |
| <b>Hakimova Zulfizar Umrzoq qizi</b>                                                                                                                                         |     |
| Biologiya ta'limida elektron ta'lim (E-Learning) va aralash ta'lim (Blended Learning) texnologiyalarining samaradorligini tahlil qilish.....                                 | 886 |
| <b>Kozimov Akbarjon A'zamjon o'g'li</b>                                                                                                                                      |     |
| Alisher Navoiy asarlarida ma'naviy-axloqiy tarbiyaga oid fikrlari tahlili.....                                                                                               | 891 |
| <b>M. Ibragimova</b>                                                                                                                                                         |     |
| Integratsiyalashgan dars ta'limiy faoliyat samaradaorligini ta'minlovchi muhim omil sifatida .....                                                                           | 894 |
| <b>Mahmatqulova Xosiyat Bobomurod qizi</b>                                                                                                                                   |     |
| Tarbiyalanuvchilarni xalq og'zaki ijodi namunalari asosida ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning mazmunini ochib berish.....                                                      | 897 |
| <b>Murodillayeva Durdona Dilmurodovna</b>                                                                                                                                    |     |
| Sun'iy intellekt davrida bolalar adabiyoti: raqamli qahramonlar, interaktiv ertaklar va bolaning ijodiy tafakkuri rivoji .....                                               | 900 |
| <b>Normurodova Nigora Abdusattorovna, Sharipova Iroda Rashid qizi</b>                                                                                                        |     |
| Qadimgi va o'rta asr mutafakkirlarining matematika fanining shakllanishi va rivojlanishidagi o'rni .....                                                                     | 903 |
| <b>Quvvatova Ozoda Gulbek qizi</b>                                                                                                                                           |     |
| Shaxs xolistik rivojlanishi – psixologik-pedagogik muammo sifatida .....                                                                                                     | 906 |
| <b>Rashidova Xurriyat Sulaymonovna</b>                                                                                                                                       |     |
| Bolalarda elementar matematik tasavvurlarni shakllantirishning psixologik-pedagogik asoslari.....                                                                            | 908 |
| <b>Ravshanova Kamola Toxirovna</b>                                                                                                                                           |     |
| Matematikaga rivojiga ulkan hissa qo'shgan olimlar .....                                                                                                                     | 911 |
| <b>To'rayeva Kamola Vosidjon qizi</b>                                                                                                                                        |     |



|                                                                                                                           |     |
|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| Umumiy o'rta ta'limda mexanika masalalarini yechish metodikasi va o'qitish jarayonining didaktik asoslari .....           | 914 |
| <b>Toxirova Maxfuzaxon Otaqo'ziyevna</b>                                                                                  |     |
| Bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachi-pedagogalarining kasbiy-axloqiy kompetentligini rivojlantirish ..... | 916 |
| <b>Xabibullayeva Sayyoraxon Maxamadali qizi</b>                                                                           |     |

# RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VOSITASIDA BO'LAJAK TARBIYACHILARNING PEDAGOGIK MULOQOT MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH

Ergasheva Sunbula Baxtiyor qizi

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Ta'lim tarbiya nazariyasi va metodikasi

(Maktabgacha talim yo'nalishi) magistranti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada bugungi kun talablari asosida raqamli texnologiyalar asri sharoitida raqamli texnologiyalarning hayotimizning ajralmas qismiga aylanib borayotgani e'tiborga olingan holda, zamon bilan hamnafas bo'lgan, maktabgacha ta'lim tashkilotlarining bo'lajak tarbiyachilarini malakali pedagog sifatida tayyorlash jarayonida raqamli texnologiyalar vositasida o'qitishning ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, bo'lajak tarbiyachilarning pedagogik muloqot madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan metodlar va ko'rsatmalar beriladi. Maqolada bugungi jadal rivojlanayotgan davrda raqamli texnologiyalarning beqiyos ahamiyati alohida ta'kidlanadi.

**Kalit so'zlar:** raqamli texnologiyalar, pedagogik muloqot madaniyati, tarbiyachi, mediasavodxonlik, metodika, bo'lajak tarbiyachi.

**Abstract:** This article examines the development of pedagogical communication culture among future preschool educators in the context of the modern digital era, where digital technologies have become an integral part of everyday life. The study presents methods and practical guidelines for training future educators through digital tools, as well as approaches to fostering media literacy and communicative competence. The article also highlights the exceptional importance and increasing role of digital technologies in today's rapidly developing world.

**Key words:** digital technologies, pedagogical communication culture, educator, media literacy, methodology, future educator.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается развитие педагогической культуры общения будущих воспитателей дошкольных образовательных организаций в условиях современного цифрового века, в котором цифровые технологии становятся неотъемлемой частью нашей жизни. В работе представлены методы и практические рекомендации по обучению будущих педагогов с использованием цифровых средств, а также подходы к формированию медиаграмотности и коммуникативных навыков. Кроме того, подчёркивается особая роль и высокая значимость цифровых технологий в стремительно развивающемся современном мире.

**Ключевые слова:** цифровые технологии, культура педагогического общения, воспитатель, медиаграмотность, методика, будущий воспитатель.

## KIRISH

Pedagogik muloqotga tayyorlik muvaffaqiyatli pedagogik faoliyatning eng muhim shartlaridan biridir. Pedagogik muloqotga tayyorlik quyidagi shakllarni o'z ichiga oladi: pedagogik muloqot asoslari, vazifalari, bezaklari, mazmuni, mohiyati va tuzilishini bilish; muloqotni tashkil etish va boshqarish; shaxsning ruhiy holati, malaka va ko'nikmalarini shakllantirish; o'qituvchining axloqiy va shaxsiy fazilatlarini rivojlantirish. Barcha bilimlar, ko'nikmalar, qobiliyatlar va shaxsiy fazilatlar pedagogik muloqot madaniyatini tavsiflaydi. Bu esa samarali pedagogik muloqot va ta'lim jarayonini yuqori professional darajada tashkil etish imkonini beradi. Pedagogik muloqot madaniyati butun kasbiy pedagogik madaniyatning bir qismidir. O'qituvchi shaxsining insonparvarlik yo'nalishi ta'lim jarayonida qulay psixologik muhit yaratilishida namoyon bo'ladi.

Pedagogik muloqot madaniyati ko'rsatkichlariga quyidagilar kiradi: xushmuomalalik, nutq madaniyati, og'zaki bo'lmagan aloqa vositalarini (pantomima, yuz ifodalari) o'zlashtirish qobiliyati, aqliy faoliyatni va o'z-o'zini tartibga solish malakasi, pedagogik xushmuomalalik. Muloqot – bu hamkasblar, o'quvchilar, ota-onalar bilan muntazam ravishda muloqot qilish zarurati bilan belgilanadigan ajralmas sifat bo'lib, aloqalarni o'rnatish, hissiy



holatni boshqarish, harakatda quvonch his qilish, bolaga qiziqish bildirish, o'yinlar mazmunini va his-tuyg'ularni anglash jarayonlarini o'z ichiga oladi.

Xushmuomalalik quyidagi fazilatlar bilan chambarchas bog'liq: qulaylik, yengillik, soddalik, samimiylik, do'stlik, sezgirlik, noqulay vaziyatlarda sabr-toqat va vazminlik, hazil tuyg'usi, talabchanlik, hurmat va xulq-atvorning namoyon bo'lishi. Muomala – shaxsni turli xil sharoit va ko'nikmalarda o'rgatishga imkon beruvchi sifatdir. Pedagog o'quvchilar bilan muloqot jarayonida juda mayda jihatlarni ham ilg'ab oladi. Bu jihatlari tashqi tomondan ahamiyatsizdek ko'rinsa-da, insonda sodir bo'layotgan ichki jarayonlarni anglash uchun muhim bo'lib, pedagogning shaxsiyati ushbu jarayonlarda katta rol o'ynaydi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Hozirgi kunda zamonaviy ta'lim jarayonida pedagogik muloqot madaniyatini rivojlantirish masalasi dolzarb bo'lib qolmoqda. Jadal sur'atlarda rivojlanayotgan hozirgi davrda axborot oqimi keskin ortib bormoqda. Raqamli texnologiya hayotimizning ajralmas qismiga aylanib borayotgan bir paytda bugungi zamon pedagoglarining mediasavodxonligi nafaqat o'quv-tarbiya jarayonida, balki ularning kasbiy mahorati va bilim darajasini belgilashda ham muhim omil sanaladi.

Bugungi kun talabidan kelib chiqib, bo'lajak tarbiyachilarda muloqot madaniyatini rivojlantirishda mediasavodxonlik imkoniyatlaridan foydalanish, ulardagi muloqotdagi kamchiliklarni bartaraf etishga xizmat qiladigan dastur yaratish, mavjud elektron qo'llanmalardan foydalanib pedagogik muloqotni shakllantirishga ko'maklashish dolzarb masalalardan biridir.

Tadqiqotning ob'ekti – bo'lajak tarbiyachilarda pedagogik muloqot madaniyatini shakllantirish jarayoni; tadqiqotning predmeti esa ushbu murakkab jarayonda raqamli texnologiyalar vositasida muloqot madaniyatini shakllantirishdir.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

**Tadqiqotning maqsadi** – bo'lajak tarbiyachilarda pedagogik muloqot madaniyatini rivojlantirishda raqamli texnologiyalar vositasida pedagogik muloqotdagi kamchiliklarni aniqlash va topilgan kamchiliklarni bartaraf etish uchun samarali dastur yaratib, uni ommaga taqdim etish va ilmiy asoslab berishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari** quyidagilardan iborat:

- raqamli texnologiya vositalari yordamida pedagogik muloqot madaniyatining nazariy asoslarini o'rganish;
- bo'lajak tarbiyachilarda pedagogik muloqot madaniyatini rivojlantirishda raqamli texnologiyalarning ta'sirini tahlil qilish;
- pedagogik jarayonga raqamli texnologiya vositalaridan olingan manbalarni integratsiya qilish yo'llarini aniqlash;
- amaliy mashg'ulotlar, interaktiv metodlar va reflektiv yondashuv asosida metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

Bo'lajak tarbiyachilar hozirgi davrda bilim olish, muloqot qilish va fikr almashish jarayonlarini nafaqat an'anaviy auditoriyada, balki raqamli muhitda ham amalga oshirishlari zarur.

Shu boisdan, bo'lajak tarbiyachilarning pedagogik muloqot madaniyatini raqamli texnologiyalar muhitida shakllantirish va rivojlantirish pedagogik fanlarning eng dolzarb yo'nalishlaridan biriga aylanganini ta'kidlash o'rinlidir. Ushbu maqolaning mazmunini bo'lajak tarbiyachilarning pedagogik muloqot madaniyatini rivojlantirishda raqamli texnologiyalarning o'rni va samaradorlik natijasini aniqlash tashkil etadi.

Tadqiqotning asosini tahlil qilishda xorijiy va mahalliy olimlarning raqamli texnologiyalar vositasida muloqot madaniyatini rivojlantirish borasida amalga oshirgan ishlari o'rganilib, ular qo'llagan metodlar hozirgi zamonda qo'llanilayotgan metod va uslublar bilan qiyoslanadi. Ya'ni, tahlil jarayoni qiyosiy-taqqoslash metodlari asosida olib boriladi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Pedagogik muloqot madaniyati va mediasavodxonlik masalalariga bag'ishlangan adabiyotlarning xalqaro va mahalliy manbalari ikki asosiy oqimda rivojlanganligi kuzatiladi:

- *bir tomondan* – mediasavodxonlik nazariyasi va raqamli medialarning individual hamda ijtimoiy ta'siri;
- *ikkinchi tomondan* – pedagogik amaliyot va ta'lim texnologiyalari orqali kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirishga qaratilgan tadqiqotlar.

Xorijiy adabiyotlarda mediasavodxonlikning nazariy asoslari aniq bayon etilgan. Masalan, media va kommunikatsiya nazariyalari (media hokimiyati, axborot maydonining strukturalari) haqida klassik qarashlar, shuningdek, zamonaviy tadqiqotchilar tomonidan mediasavodxonlik ta'limi konsepsiyalari taklif qilingan. Xalqaro tadqiqotchilar mediasavodxonlikni nafaqat texnik ko'nikma, balki tanqidiy tafakkur, axborot etika va raqamli fuqarolik (digital citizenship) bilan chambarchas bog'liq jarayon sifatida izohlaydilar.

Bundan tashqari, interaktiv metodlar, medialoyihalar va reflektiv mashg'ulotlarning o'quvchi-yoshlarning kommunikativ mahoratini rivojlantirishdagi samaradorligi bo'yicha empirik dalillar ham keltirilgan. Shu bilan birga, tadqiqotlarda ijtimoiy media platformalarining pedagogik imkoniyatlari va xavf-xatarlari ham tahlil qilingan.

Mahalliy (O'zbekiston va Markaziy Osiyo) tadqiqotlarda esa pedagogik muloqot madaniyati, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ta'limga joriy etish va talabalar orasida raqamli madaniyatni rivojlantirish masalalari o'rganilgan. Ushbu ishlarda ko'proq ta'lim jarayonlarida texnologik vositalarning qo'llanishi, o'qituvchilarning mediakompetensiyalarga muhtojligi va universitetlarda mediasavodxonlik modullarini joriy etish bo'yicha tavsiyalar berilgan. Mahalliy tadqiqotlar ko'p hollarda amaliy yo'nalishga ega bo'lib, darsliklar, metodik qo'llanmalar va seminarlarga qaratilgan hamda kontekstga mos (madaniy va ta'lim tizimining xususiyatlarini hisobga olgan) yechimlar taklif etadi.

Ammo adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ayrim muhim bo'shliqlar mavjud: ko'plab xalqaro tadqiqotlar umumiy nazariy va empirik natijalarni taqdim etsa-da, mahalliy kontekstga – o'zbek tilidagi o'quv dasturlari, milliy madaniy normativlar va oliy ta'lim tizimining o'ziga xos tashkil etilishiga moslashtirilgan metodik yechimlar yetarli emas. Pedagogik muloqot madaniyatini va mediasavodxonlikni integratsiyalashgan holda baholash uchun standartlashtirilgan baholash vositalari va mezonlar ham cheklangan.

Refleksiv treninglar, medialoyihalar va ijtimoiy media amaliyotining talabalar muloqot madaniyatiga qanday aniq ta'sir ko'rsatishi borasida ko'proq eksperimental va uzoq muddatli tadqiqotlar talab etiladi. Muallif ko'targan masalaning o'ziga xosligi ana shu bo'shliqlarni bartaraf etishga qaratilgan. Xususan, mazkur maqola mediasavodxonlik komponentlarini pedagogik muloqot madaniyatiga integratsiyalashgan tarzda yondashadi (nazariy va amaliy jihatlarni birlashtiradi), kontekstga mos metodik paket – interaktiv topshiriqlar, medialoyihalar, reflektiv treninglar va ularni baholash uchun aniq mezonlarni taklif qiladi, shuningdek, amaliy eksperimental yoki metodologik asosga tayangan holda O'zbekiston oliy ta'lim muhiti uchun mediasavodxonlikni tatbiq etish samaradorligini baholashni maqsad qiladi (ya'ni nafaqat tavsiyalar, balki ularning amaliy natijalari ham o'rganiladi). Shu tariqa, mavjud adabiyotlar bazasiga tayanib, maqola nazariy bilimlarni mahalliy pedagogik amaliyot bilan bog'lash, baholash mexanizmlari va konkret metodik yechimlarni taklif etish orqali mavzuga konstruktiv hissa qo'shadi va ta'lim jarayonida mediasavodxonlikni samarali integratsiya qilish hamda talabalarda pedagogik muloqot madaniyatini barqaror shakllantirish bo'yicha ilmiy-amaliy asos yaratadi. <sup>[2]</sup>

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, mediasavodxonlikning ta'lim jarayoniga samarali integratsiyasi talabalarda nafaqat kommunikativ madaniyatni, balki axborot madaniyati, raqamli mas'uliyat va kasbiy etika tamoyillarini ham shakllantiradi. Shunday ekan, mediasavodxonlikni rivojlantirish bugungi globallashuv davrida pedagogik muloqot madaniyatini yuksaltirishning muhim sharti sifatida qaraladi. Umuman olganda, tadqiqot natijalari mediasavodxonlikni pedagogik muloqot madaniyati bilan uzviy bog'liq holda o'rganish zarurligini ko'rsatadi. Talabalarda bu ikki jihat uyg'un rivojlanganda, ularning raqamli axborot makonida madaniyatli, axloqiy va samarali muloqot olib borish qobiliyati sezilarli darajada oshadi. Shu bois, maqolada ishlab chiqilgan metodik tavsiyalar oliy ta'lim tizimida pedagogik muloqot madaniyatini rivojlantirishda amaliy ahamiyatga ega bo'lib, ularni o'quv dasturlariga integratsiya qilish tavsiya etiladi.

Mediasavodxonlik talabalarda pedagogik muloqot madaniyatini shakllantirishning muhim vositasi hisoblanadi. U nafaqat texnik bilimlarni, balki axborotga nisbatan madaniy, axloqiy va tanqidiy yondashuvni ham rivojlantiradi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, mediasavodxonlik talabalarda pedagogik muloqot madaniyatini rivojlantirishning samarali vositasidir. U axborotni tanqidiy tahlil qilish, axborot etikasi, raqamli madaniyat va ijtimoiy mas'uliyat kabi kompetensiyalarni shakllantirish orqali talabalarning kommunikativ va madaniy rivojlanishiga xizmat qiladi <sup>[2]</sup>.

Bo'lajak tarbiyachilarda pedagogik madaniyatni raqamli texnologiyalar orqali rivojlantirish zamonaviy ta'lim tizimining eng muhim va dolzarb vazifalaridan biridir. Bu jarayon nafaqat tarbiyachilarning kasbiy kompetensiyalarini oshirish, balki ta'lim sifatini yaxshilash va jamiyatning ijtimoiy-madaniy rivojlanishiga hissa qo'shish imkonini beradi. Nazariya va amaliyotni uyg'unlashtirish, raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish, oldingi hamda hozirgi davrda ishlab chiqilgan pedagogik mahoratni, pedagogik muloqot madaniyatini oshirishda foyda bergan uslublarni mustahkamlash va kasbiy motivatsiyani oshirish orqali ushbu muammolarni bartaraf etish mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Tashmatova, G. (2025). Raqamli texnologiyalar muhitida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy pedagogik mahoratini oshirish imkoniyatlari. *New Renaissance*.
2. Raximova, Z. X. (2025). Bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik muloqot madaniyatini shakllantirishda media savodxonlikning ahamiyati. *Maktabgacha va maktab ta'limi pedagogika-psixologiya*, (11), 944–948.
3. G'iyosova, M. A. (2025). Bo'lajak tarbiyachilarda pedagogik madaniyatni rivojlantirish pedagogik muammo sifatida. *Journal of Effective Learning and Sustainable Innovation*.
4. Nazimov, R. N. (2024). Pedagogik muloqot madaniyati tushunchasi. *Iqro*.
5. Karimova, V. M. (2018). Pedagogik muloqot psixologiyasi. O'zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti.
6. Yo'ldoshev, J. G'. (2017). Pedagogik mahorat. O'qituvchi.
7. Xodjayev, A. A. (2020). Maktabgacha ta'limda pedagogik muloqot madaniyati. *Fan va texnologiya*.
8. Jalolova, G., & Raxmatova, M. (2021). Pedagogik psixologiya. *Iqtisod-Moliya*.
9. Rasulova, M. (2022). Bo'lajak tarbiyachilarda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish. *Ta'lim tizimida innovatsion yondashuvlar*, (3).
10. To'xtayeva, D., & Nazarova, S. (2021). Muloqot madaniyati va uning shakllanish bosqichlari. *Maktabgacha ta'lim*, (4).

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2025. №12**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzirimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.